



## FARG‘ONA VILOYATI O‘ZBEKISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 28 - dekabr

429-11-161-Q/22

O‘zbekiston tuman hokimligi

***O‘zbekiston tumani xududidan o‘tuvchi 4K-895 “Yaypan-O‘qchi-Shoyimbek”, 4K-916 “O‘qchi-Tovar”, 4K-926 “Yaypan sh, Temir-yo‘l bekati-Abdusamad q, Toshkent-O‘sh”, 4K-895 a “Tinchlik shaharchasi” va 4K-923 “Yaypan-Rapqon-Beshariq-Chilmaxram” umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llariga yo‘l belgisi o‘rnatishga va sun‘iy yo‘l noteksligi qurishga ruxsat berish to‘g‘risida***

O‘zbekiston Respublikasining «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida» gi Qonuni (*O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 15-son, 197-modda; 2015 y., 52-son, 645-modda; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son*)ning 5, 7-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrda «Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 370-sonli Qarori (*Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 18.12.2020 y., 09/20/796/1639-son*)ga muvofiq, tuman hududida harakatlanish xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transport xodisalarini oldini olish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning osoyishtaligini ta‘minlash, bolalar ishtirokida sodir bo‘layotgan yo‘l-ulov xodisalarini oldini olish maqsadida hamda tuman IIB boshlig‘ining tuman hokimligida 24.11.2022 yil kuni 04/324-son, 04/325-son bilan ro‘yhatdan o‘tgan yozishmalarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalarini qo‘llab,

### QAROR QILAMAN:

1. Tuman IIB boshlig‘ining tuman hokimligida 2022 yil 24-noyabr kuni 04/324-son, 04/325-son bilan ro‘yhatdan o‘tgan yozishmalari xamda tuman adliya bo‘limining 2022 yil 21 dekabr kuni 11-sonli xulosasi inobatga olinsin.

2. O‘zbekiston tumani xududidan o‘tuvchi PK 186+07, 188+40, 356+20, 358+00 da 3.28 “Tuxtab turish taqiqlangan” taqiqlovchi yo‘l belgilarini o‘rnatish, PK 325+20, 320+60, 236+50, 192+80 da “sun‘iy notekislik”, 4K-916 “O‘qchi-Tovar” avtomobil yo‘lining PK 50+00, 3.28 “Tuxtab turish taqiqlangan”, PK 10+20, 12+00, 20+50 qismida 3.28 “Tuxtab turish taqiqlangan” taqiqlovchi yo‘l belgilarini o‘rnatish, PK 10+20 qismida “sun‘iy yo‘l notekisligi”, PK 24+00, 25+00 qismida 3.27 “To‘xtash taqiqlangan”, PK 05+10, 07+00, 10+00, 10+50, 11+25, 12+00 va 15+30 qismlarida 3.28 “To‘xtab turish taqiqlangan” yo‘l belgilarni o‘rnatish hamda PK 20+50 qismida “sun‘iy yo‘l notekisligi” qurilishiga ruxsat etilsin.

3. O‘zbekiston tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK direktori O.Djuraevga:  
4K-895 “Yaypan-O‘qchi-Shoyimbek”, 4K-916 “O‘qchi-Tovar” va 4K-926 “Yaypan sh, Temir-  
yo‘l bekati-Abdusamad q, Toshkent-O‘sh” umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llariga yo‘l  
belgisi o‘rnatib berish va sun‘iy yo‘l notekisligi qurish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman IIB boshlig‘i (B.Najmitdinov)ga:

Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 12-  
apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan Yo‘l harakati qoidalarining 80-bandining oxirgi 6-  
xatboshisiga asosan tezlikni cheklash bilan bog‘liq yo‘l belgilarini o‘rnatishda normativ tUSDagi  
qaror loyixasini yuqori turuvchi organ orqali viloyat xokimligiga kiritish bildirilsin.

5. “Yaypan ovozi” gazetasi tahririyati va Axborot xizmati raxbari (D. Jabborov) mazkur  
qaror rasmiy e‘lon qilinishi va hokimlik veb-saytiga joylashtirilishi ta‘minlansin.

6. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Ismoilov  
zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi v.v.b**



**X.Alijonov**